

GEOGRAFIYA TA'LIMIDA TOPONIMIKA VA GEOGRAFIK TERMINLAR

Xoliqova Mahbuba Orifjonovna

Navoiy davlat universiteti dotsenti

Ubaydullayeva Aziza Nuriddin qizi

Navoiy davlat universiteti

Tabiiy fanlar va tibbiyot fakulteti talabasi

Annotatsiya

Toponimlar va geografik atamalar haqidagi ta'limot geografiya fanlarini bilish bilan qo'shilib, o'qituvchi, o'quvchini Yer sayyoramizning oby'ektlari va tabiatini ko'z oldimizda gavdalandirishning zaruriy talabi deb qarash kerak. Ushbu maqolada Vatanimizning kelgusi istiqboli uchun bilimli, ma'naviy yetuk avlodlarni tarbiyalash, olib borilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi ekanligi, shu sababdan O'lkashunoslik fanining o'qitilishi talabalarning hudud haqidagi tasavvurlarini kengayishiga, yurtimizdagi geografik ob'yektlar, me'moriy obidalar, arxeologik ob'yektlar, voqea va hodisalar, tabiat haqidagi bilimlarini boyitishga xizmat qilishi bilan uzviy bog'liqlik borligini ilmiy jihatdan asoslashga harakat qildik.

Kalit so'zlar: O'lkashunoslik, Obva, Lobva, Vodva, Finn, Ugart, Desna.

ТОПОНИМИЯ И ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ ТЕРМИНЫ В ГЕОГРАФИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ

Холикова Махбуба Орифжоновна

Доцент Навоийского государственного университета

Убайдуллаева Азиза Нуриддин кызы

Навоийский государственный университет

Студент факультета естественных наук и медицины

Аннотация

Учение о топонимах и географических терминах должно сочетаться со знанием географических наук и рассматриваться учителем, учеником как необходимое требование воплощения в наших глазах предметов и природы планеты Земля. В этой статье объясняется, что воспитание образованного, духовно зрелого поколения для будущего будущего нашей Родины является

основной целью проводимых реформ, поэтому преподавание краеведения должно способствовать расширению представления студентов о территории, географических объектах, архитектурных памятниках, археологических объектах в нашей стране, мы постарались научно обосновать, что существует неразрывная связь между событиями и явлениями, служащая обогащению их знаний о природе.

Ключевые слова: Краеведение, Обва, Лобва, Водва, Финн, Угарт, Десна.

Toponymy and geographical terms in geographical education

Kholikova Makhbuba Orifzhonovna

Associate Professor of Navoi State University

Ubaidullaeva Aziza Nuriddin kizi

Navoi State University

Student of the Faculty of Natural Sciences and Medicine

Abstract

The doctrine of toponyms and geographical terms is combined with the knowledge of the subjects of geography, and the teacher, the student should be viewed as a necessary requirement to embody the objects and nature of the planet Earth before our eyes. This article tells about the fact that the education of educated, spiritually mature generations for the future future of our Motherland is the main goal of the reforms being carried out, for this reason, the teaching of local history science allows students to expand their perception of the territory, geographical objects, architectural objects, archaeological objects in our country, we tried to scientifically substantiate that events and phenomena are inextricably linked with the fact that they serve to enrich their knowledge of nature.

Keywords: Local history, Obva, Lobva, Vodva, Finn, Ugart, Desna.

Dunyo tabiiy manzarasi bilan bog'liq umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismi bo'lgan geografik madaniyatni tarbiyalaydi. Qayerda qanday geografik oby'ekt joylashgan, ular bir-biriga nisbatan qanday o'rinda ekanligini o'rganish orqali har bir oby'ektning o'z atoqli oti, oby'ektning xususiyatini ifodalovchi

hodisa va jarayonlarning maxsus geografik terminlardan iborat ekanligi va uning mohiyatini o'quvchi bilib oladi. Qayerda qanday joylashuv obyektning nomi mazmuni va terminlar ta'rifini bilish geografik bilim va geografik dunyoqarash hisoblanadi. Shuning uchun ham "Maktab geografiyasini qayta qurishning ilmiy, uslubiy konsepsiyasi" ning ta'lim mazmunining majburiy minimumi bo'linadi.

- geografiyaning nazariy asoslari
- geografik tadqiqot me'todlari
- tabiiy va iqtisodiy obyektlar
- hodisa va jarayonlar
- olamni idrok etishning moddiy va ma'naviy madaniyatga ifodalanishi
- hudud geografik tavsifining tuzilishi kabi olti yo'nalish ko'rsatilgan bo'lib

bularndan ; tabiiy va iqtisodiy obyektlarda toponimikani bilish, hodisa va jarayonlar bo'limida geografik terminlarni o'rganish talab etiladi. Geografik obyektlar nomi va joylashivini xaritadan ko'rsata olish, muayyan jarayon va hodisaning mohiyatini ifodalovchi terminning mazmunini ta'riflay olish bu toponimika va geografik terminshunoslik mazmunidagi ta'limiy ishdir. Har qanday geografik nomni bilishda birinchi va asosiy vazifa obyektning shu xildagi obyektlardan alohida ajratilishi va nomlanishida namoyon bo'ladi. Obyekt nomidan foydalanib og'zaki va yozma nutqda ushbu toponimning biror bir predmet yoki hodisa bilan bog'lash imkoniyati paydo bo'ladi. Nomlar ayni shu obyektning shu singari boshqa obyektlarga nibatan hududiy joylashishi boshqalari bilan hududiy bog'liqligi hamda geografik hodisa va jarayonlarni obyekt bilan bog'lashga yordam beradi. Ta'lim mazmunining majburiy minimumida o'quvchilar egallashi shart bo'lgan ko'nikma va malakalar – ayta, (ko'rsata) olish, aniqlay (o'lcay) olish, tasvirlay olish tushuntira olish va bashorat qila olish kabi ko'rsatkichlar vositasida ifodalangan bular asosan obyektни xaritadan ko'rsata olish va uning xususiyatini tariflay olish toponimika va geografik terminlarni bilish bilan bog'liq ekanligi ko'pchilikka ayon. Nomning hududiy o'rnini belgilash natijasida yangi nomlar yasaladi. Chunonchi, Sibir - G'arbiy Sibir pasttekisligi O'rta Sibir yassi tog'ligi shimoliy orollari, namlik

hududiy doirasini aniqlash geologik geografik ifodalar, ilmiy atamalar yasash uchun qulaylik yaratadi. Baykal burmalanishi – perm davri, Toshkent geologik asri, Qo`qon shamoli, Tyanshan sirtlari, Sibir frontlari, Sibir antisekloni, Yenesiy Kryaji, Aldan qalqoni va boshqalar. Toponimlar oby`ektning o`rni, oby`ektning turi, turli tabiiy hodisa va jarayonlarni aniqlash maydonida voqeyiy bo`lishini ifodalashi bilan geografik ta`limda katta ahamiyat kasb etadi.

Toponimlar geografik oby`ektning joylanishi bilan birga uning turini, oby`ektning qanday xildagi tabiiy voqelikka mansubligini ham bildiradi. Chunki qadimgi odamlar tabiat bilan yuzma yuz kelganda tabiatni tashkil etgan tarkibiy qismlarga ajratish ehtiyojini sezganlar, odamlarni o`rab turgan tabiatni qismlarga ajratish, har bir qismning xususiyatini aniqlash lozim bo`lgan, lekin ularda so`z boyligi yetishmagan shuning uchun suv, daryo, dengiz, ko`l va boshqa shu kabi oddiy so`zlar bilan ifodalab qoya qolganlar. Shu boisdan ham hozirgi toponimlar ichida-suv (Oqsuv, Qorasuv) - shu (Xeyshue) va (Obva, Lobva Vodva, Fin, Ugart tillarda - va-suv) - don (ardon, sardon, nordon, razdon, ositikcha – don daryo) ko`plab uchraydi. Keyinchalik bu oddiy so`zlar bilan ifodalangan oby`ektlarni bir-biridan ajratish kerak bo`lgan, natijada bu so`zlar yoniga -oldiga – old qo`shimcha sifatida bu oby`ekt rangi, tezligini bildiruvchi sifatlar qo`shimchalar qo`shilgan, natijada Qizilsuv, Sarisuv, Sovuqsuv, Jilisuv, nomlari paydo bo`ladi. Shuni aytish kerakki geografik nomlarning paydo bo`lishi juda murakkab va uzoq davom etgan tarixiy jarayon. Shu tufayli ko`pgina gidronimlarni ularning paydo bo`lgan aniq tarixiy voqiyiligi bilangina to`g`ri tushuntirib berish mumkin. Darhaqiqat har bir geografik oby`ektning aniq o`ziga xosligini ifodalash uchun tashqi qiyofasi jihatdan inson tanasining azolari yoki tanish narsalarga shakllarga o`xshashlikni bildiruvchi so`zlarni ayni shu oby`ektning shakliga muqova qilingan. Shu jihatdan olganda, daryolarimiz irmoqlari nomidagi “ko`l” so`zi harakterlidir. Geografik nomlar tarkibidagi og`iz (og`zi keng qishloq, yaylov, Chiroqchi tumanida, Oq dahana Qishloq Qamashi tumanida) ko`z- (chashma-Hazorchashma Tojikistonda) nomlarni ko`rsatish mumkin. Inson tanasining a`zolariga o`xshatib ataladigan geografik nomlar rus va boshqa xalq

tillarida ko'pchilik Ob'gubasi (Ob daryosining qo'ltig'i,) qo'ltiq, ko'rfazi O'lik qo'ltiq, Oqbosh tog', Ural tog'i (Osiyo va Yevropani belbog' singari bog'lab turadigan tog'lar zanjiri) Beltog'-(Hisor tog'ining tarmog'i) Qoraqo'l- (Qirg'izistondagi shahar-1925-1992 yillarda Prijivalskiy deb atalgan) va boshqalar.

Oddiy sifatiy ma'nodagi so'zlarning geografik nomlarga aylanishi barcha xalqlarda uchraydi. Sahroi Kabir - arabchada Katta Sahro Gobi-mo'g'ilchasuvsiz cho'l, Pireniy basklar tilida piren-tog', Denepr irmog'i "Desna"ning nomi- o'ng irmoqi Ivanova viloyatidagi Shuya shahri daryochasi. Nomi-chap irmoq so'zlari ekanligini geograflar bilishi lozim. Shu misollar geografiya fani uchun nomning kelib chiqishi bilan birgalikda uning ma'nosini bilish ham katta ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Odatda nomlar ma'nosini tahlil etish semantika deb ataladi.

Toponimlar va geografik atamalar haqidagi ta'limot geografiya fanlarini bilish bilan qo'shilib, o'qituvchi, o'quvchini Yer sayyoramizning oby'ektlari va tabiatini ko'z oldimizda gavdalantirishning zaruriy talabi deb qarash kerak.

Geografiya ta'limi jarayonida geografiyani qiziqarli tomonini oshirish uchun ta'riflanayotgan atama termin va nomlarning ma'no mazmuni va kelib chiqishini bilishga intilish buni imkoni boricha o'qituvchi o'quvchiga yetkazish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu fikrlar nuqtai nazaridan o'z o'lkasining tarixi, tabiati, boyliklarini o'rganadigan ekskursiyalar tashkil etish, to'garak ishini joylashtirish kabi sinfdan va maktabdan tashqari ishlar muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Normurodov M., Nafasov T. "Chiroqchnoma" T., "Muharrir nashriyoti" 2010
2. Nafasov T. O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati. T., O'qituvchi. 1988.
3. Nafasov T. Geografiya – toponimikaning debochasi va doyasi " Zamonaviy geografiyaning regional muammolari" Qarshi - 2010 38 – 40 b.
4. Nafasov T., Suyarov O. Geografik toponimika " Zamonaviy geografiyaning regional muammolari" Qarshi - 2010 54 – 55 b.

5. Termin tanlash mezonlari. T., Fan. 1991.
6. Qorayev S. Toshkent toponimlari T., Fan, 1991.
7. Qorayev S., G'ulomov P., Rahimbekov R. Geografiyadan izohli lug'at. T., O'qituvchi, 1979.
8. Komilova, N. K., & Latipov, N. F. (2022). FACTORS AFFECTING THE ECOLOGICAL STATUS OF INDUSTRIALIZED CITIES AND MEASURES TO MONITOR THEM (ON THE EXAMPLE OF NAVOI REGION). Экономика и социум, (2-2 (93)), 199-206.
9. Латипов, Н. Ф. (2018). International migration tours and works. Наука и мир, (8), 108-110.
10. Latipov, N. (2022). НАВОЙ ВИЛОЯТИДА АХ. ОЛИ САЛОМАТЛИГИГА ЭКОЛОГИЯНИНГ ТАЪСИРИ.
11. Latipov, N. F. (2024). THE PROCESS OF URBANIZATION AND ITS CORRELATION WITH THE ECOLOGICAL CIRCUMSTANCE. Science and innovation, 3(Special Issue 4), 343-352.
12. Abduxomidovna, X. I. (2022). NAVOIY VILOYATIDA QORAMOLCHILIKNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY-GEOGRAFIK JIHATLARI. ГЕОГРАФИЯ: ПРИРОДА И ОБЩЕСТВО,(2).
13. Shodmonovich, N. S. (2024). DYNAMICS OF POPULATION AND LABOUR RESOURCES OF NAVOI REGION, THEIR LOCATION CHARACTERISTICS. American Journal Of Social Sciences And Humanity Research, 4(06), 221-235.
14. Komilova, N., Mukhammedova, N., Ermatova, N., Ibragimova, Z., & Bafoeva, S. (2023). Pandemics and their geographical distribution. EMERGENCY MEDICINE, 19(6), 386-392.